

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
JAHON VA MINTAQQA IQTISODIYOTI KAFEDRASI

**ILM-FAN TARAQQIYOTIDA MINTAQAVIY  
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA  
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH**

mavzusidagi  
respublika ilmiy-amaliy konferensiya

**MATERIALLAR TO'PLAMI  
(23 fevral 2024 yil)**

**Farg'ona – 2024**

Shuningdek, mamlakatning ekologik holati va uning jamiyat kelajagiga ta'siriga e'tibor qaratish lozim. Barqaror rivojlanish va atrof-muhitga g'amxo'rlik har tomonlama yondashuv va innovatsion echimlarni talab qiladigan tobora dolzarb vazifalarga aylanmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqotchilar ta'lim, sog'liqni saqlash va infratuzilmani rivojlantirish kabi jihatlarga e'tibor qaratishlari kerak, chunki ular jamiyatning barqaror va muvozanatli rivojlanishi uchun asosdir.

O'zbekistondagi zamonaviy tendentsiyalar chuqur tahlil va muhokamani talab qiladi. Tadqiqotchilar va jamoat arboblari samarali strategiyalarni ishlab chiqish va mamlakatning gullab-yashnashi va fuqarolarining hayot sifatini yaxshilashga yordam beradigan innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun hamkorlik qilishlari kerak. Bu jarayonda XXI-asrda O'zbekistonda ijobjiy o'zgarishlar va takomillashtirish uchun harakatlantiruvchi kuch bo'lishi mumkin bo'lgan ilmiy hamjamiyat muhim rol o'ynaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Abdullayev Sh. K., "O'zbekistonning ilmiy-texnik rivojlanishi: hozirgi holati va istiqbollari", "fan va ta'lim" jurnali, Toshkent, 2018, 45-52-betlar
2. Akramova G. A., "O'zbekistonning ijtimoiy sohasidagi zamonaviy tendentsiyalar", "ijtimoiy fanlar" jurnali, Toshkent, 2020, 3-son, 30-37-betlar
3. Qosimov A.N., "Globallashuv sharoitida o'zbekiston rivojlanishining iqtisodiy tendensiyalari", "Iqtisodiyot" nashriyoti, Toshkent, 2019, 78-85-betlar

## **BUXORO VILOYATIDA HUNARMAND XOTIN-QIZLAR FAOLIYATI TAHLILI**

**Ergasheva Aziza Farmonovna**

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Hunarmandchilik mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, chunki ular valyuta tushumlarining asosiy vositasi bo'lib, kam kapital qo'yilmalarni talab qiladi va aholini ish bilan ta'minlaydi. Qolaversa, hunarmandchilik mahsulotlari o'ziga xosligi, sifati, tabiiy materiallardan foydalanib ishlab chiqarilganligi va madaniyatning mazmun-mohiyati bilan ham mamlakat ramzi sifatida qabul qilinadi[1].

Buxoro azaldan o'zining tarixi, udumlari bilan boshqa viloyatlardan ajralib turardi, asosan, hunarmandlar faoliyati, an'analari va mahsulot bozori bilan ham alohida o'ringa ega. 2023-yil oktyabr holatiga ko'ra "Hunarmand" uyushmasi Buxoro viloyat boshqarmasida 2224 nafar hunarmandlar a'zo bo'lib, shundan 1246 nafari 56,03 % xotin-qizlar va 497 nafari 22,35 % yoshlarni tashkil etadi. Shuningdek, ularga 5812 nafar shogirdlar biriktirilgan. Viloyatda 2023-yil 10 oy davomida hunarmandchilik yo'nalishida 4550 nafar yangi ish o'rnlari yaratilishi orqali bandligi ta'minlandi. 2023-yil o'n oy davomida 387 nafar ishsiz fuqarolar subsidiya mablag'i evaziga uyushmaga a'zo qilindi[7,8].


Buxoro viloyatida hunarmandlarni, asosan xotin-qizlar hunarmandlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida doimiy ravishda Xalqaro "Ipak va Ziravorlar" festivali, Xalqaro ananaviy "Tasviriy va amaliy san'at" festivali, "Kashtado'zlar va xalq o'yinlari" festivali, "Xalqaro Zargarlik va Zardo'zlik, kashtachilik san'ati festivali", "Buxoro hunarmandlari kuni", "Nasriddin afandi kuni" festivali, "Xalqaro Zargarlik va Zardo'zlik, kashtachilik san'ati forumi, "Turkiy xalqlar hunarmandchiligi" mavzusida forumi kabi turli xil madaniy tadbirlari, ko'rgazma savdo yarmarkalari va festivallari o'tkazib kelinmoqda[2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-91-sonli farmoni bo'yicha hunarmandchilik faoliyatining 43 ta yo'nalishi bo'yicha faoliyat yuritish mumkin. Keyingi yillarda zargarlik san'ati an'analarini qayta tiklash, mahalliy zargarlik buyumlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish, ularning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini

ta'minlash, shuningdek, aholining sifatli zargarlik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan ko'plab ishlar qilinmoqda[3].


Shu bilan bir qatorda, zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish, xom ashyo xaridi, ishlab chiqarilgan mahsulot savdosining katta qismi yashirin tarzda amalga oshirilayotgani ham sir emas. 2023-yil 14 noyabr kuni Vazirlar Mahkamasi tomonidan Qonunchilik palatasiga kiritilgan «O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 483-moddasiga mahalliy zargarlik buyumlarini ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shimcha kiritish to'g'risida»gi qonun loyihasi mazkur yo'nalişdagi huquqiy bo'shliqlarni to'ldirishga ratilgani bilan ahamiyatlidir.

Ushbu qarorning 3-ilovasi 5-bandiga asosan Buxoro shahrida 16-17-18 iyun kunlari Xalqaro "Ipak va Ziravorlar" festivali o'tkazildi. Festival doirasida 6 ta qo'shni davlatlardan 20 nafar usta hunarmandlar hamda 200 ga yaqin mahalliy hunarmandlar ishtirok etishdi[6]. Buxoro viloyatida faoliyat yuritib kelayotgan hunarmandlar faoliyat yuritib kelayotgan tumanlari kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, eng ko'p hunarmandlar soni Buxoro Shahar, G'ijduvon, Romitan va Jondor tumanlariga to'g'ri keladi(1-chizma).



**2-chizma. Buxoro viloyatida hunarmand xotin-qizlarning umumiyligi, tumanlar kesimida (2023-yil oktyabr holatiga ko'ra).**

Viloyatda hunarmand xotin-qizlar o'rnini alohida aytib o'tish kerak deb lozim ko'rdik. Eng ko'p hunarmand xotin-qizlar Buxoro shahar, G'ijduvon, Kogon, Jondor tumanlarida faoliyat yuritib kelyaptilar (2-chizma).



### **3-chizma. Buxoro viloyatida hunarmandlar turli millat vakillari soni, tumanlar kesimida (2023-yil oktyabr holatiga ko‘ra).**

2023-yil avgust holatiga ko‘ra 14 nafar turli millat vakillari hunarmandlar uyushmasi ro‘yxatidan o’tib, o‘z faoliyatlarini olib boryaptilar. Buxoro, Kogon shahri, Kogon, Romitan, Buxoro tumanlarida turli millat vakil hunarmandlari mavjud (3-chizma).

2023-yil 1-oktyabr holatiga ko‘ra Buxoro viloyatida jami 10 ta hunarmandchilik markazlari faoliyat olib bormoqda. Hunarmandchilik markazlarida shogirdlar soni chegaralanmagan bo‘lib, tadbirdorlikni rivojlantirish agentligi tomonidan ustoz-shogird an’anasi asosida o‘quv kurslari tashkil etganchaga subsidiya asosida ustalarga va shogirdlarga oylik ish haqqi to‘lanmoqda. Tikuvchilik mashinkalari va asbob uskunalar ajratilmoqda, yillik 14% foiz stavkada 300 mln. so‘mgacha imtiyozli kreditlar, ijtimoiy soliq stavkasi yiliga bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida belgilangan, faoliyat yuritish joyidan qat’iy nazar kommunal infratuzilma xizmatlari haqqini to‘lash aholi uchun belgilangan tariflar bo‘yicha va shartlar asosida amalga oshirilishi, mahalliy va xorijiy ko‘rgazma va savdo yarmarkalarda qatnashish kabi imtiyozlardan foydalanadi[8].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Buxoro viloyati xotin-qiz hunarmandlar faoliyatiga alohida e’tibor berilib, ular faoliyatini kengaytirish, yangi turdagи mahsulotlar ishlab chiqarishi, shogirdlar sonini ko‘paytirish uchun mutasaddi tashkilotlar, davlat tomonidan kredit imtiyozlari, maxsus tadbirlar zoye ketmayatganligini ko‘rshimiz mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Uzbekistan, B. (2021). Ergasheva Aziza Farmonovna. ВОЗМОЖНОСТИ И ДОСТИЖЕНИЯ НАУКИ, 24.
2. Эргашева, А. (2023). Хунармандчилик маҳсулотлари бозорида хизмат кўрсатишнинг ўзига хос хусусиятлари. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 34(34).
3. Эргашева, А. (2023). РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ПРИВИЛЕГИЙ В ПОДДЕРЖКЕ РЕМЕСЕЛ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 36(36).
4. Эргашева, А. (2023). МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В СФЕРЕ РЕМЕСЕЛ В МАХАЛЛЯХ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 36(36).
5. Эргашева, А. (2023). HUNARMANDCHILIKSOHASIDATADBIRLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSI YYO ‘NALISHLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 35(35).

<b>Abduraxmanova Sh. Xorunshoyev X.</b>	
Ishlab chiqarish sohasiga smm tadbig'i afzalliklari.....	535
<b>Ганиев Э.</b>	
Взгляды и подходы к формированию национального кадрового резерва.....	538
<b>Yormatov I., Mo'minov I.</b>	
Qurilishni boshqarishda inson omili.....	543
<b>Gavxaroy T.</b>	
Xizmatlar sohasi orqali aholi turmush darajasini oshirish yo'llaritoxirova .....	545
<b>Jeenbekova B., Maxkamov E.G., Xolikulov M.R.</b>	
Prospects for the development of agrotourism in the fergana valley .....	550
<b>Xusanova D.</b>	
O'zbek xalq bayramlari va marosimlarida tarixiy qadriyatlar va an'analarning o'rni.....	552
<b>To'ynazarova I. Hazratova D.</b>	
O'zbekiston respublikasida yashab kelayotgan xalqlarning ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarining zamonaviy tendensiyalari.....	554
<b>Ergasheva A.</b>	
Buxoro viloyatida hunarmand xotin-qizlar faoliyati tahlili .....	558
<b>Bayxonov B. Qazaqov T.</b>	
Davlatning hududiy iqtisodiy siyosatida barqaror hududiy rivojlanishning mazmuni va konseptual asoslari.....	561
<b>Madaminova G.</b>	
The significance of studying history: unveiling the rich tapestry of human experience.....	566
<b>Yulchiyev A.</b>	
Mehmono'stlik va turizm sanoatining o'xhash va farqli tomonlarining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi axamiyati.....	567
<b>Axmedov A.</b>	
Raqobat va ma'naviyat.....	569
<b>A'zamova K.</b>	
Yangi o'zbekistonda ijtimoiy davlat tushunchasi.....	572
<b>Низамиев А., Айтыкулова Б., Момошева Г.</b>	
Анализ результатов финансово-хозяйственной деятельности предприятий народного художественного промысла (на примере государственного предприятия "национальное объединение народных художественных промыслов "кыял")......	575
<b>Axmedova N.</b>	
Kichik biznesni rivojlantirishda qo'l mexnatining o'rni.....	577
<b>5-SHO'BA. YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHDA "IQTISODIYOT NAZARIYASI" FANINING ROLINI KUCHAYTIRISH</b>	
<b>Xalmatjanova G.</b>	
Yangi O'zbekiston: innovatsiya, fan va ta'lim.....	580
<b>Iqramov M.</b>	
Marketologlar tayyorlashda kreativ usullardan foydalanish.....	583
<b>Khajimuratov A.</b>	
Yuqori malakali kadrlar tayyorlashda iqtisodiyot nazariyasi fanining ahamiyati....	586
<b>Sobirova L.</b>	
Hududlar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning zamonaviy boshqaruv usullari....	592
<b>Boltayeva M. Durdiqilichova R.</b>	